

**ARBITRAJ KELISHUVI VA NIZONING HAKAMLIK HUQUQINI
TARTIBGA SOLUVCHI QONUN**

Muhiddinov Shahzodjon Abdurayim o'g'li

Huquqshunos

E-mail: shahzodjonmuhiddinov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada arbitraj kelishuvi va arbitraj jarayonini tartibga soluvchi qonun borasida so'z yuritiladi. Xususan, arbitraj kelishuvining arbitraj huquqidagi o'rni va ahamiyati borasida alohida to'xtalib o'tiladi. Maqolaning dolzarbligi shundaki, arbitraj kelishuvining nuqsonli bo'lib qolmasligi va arbitrajni tartibga soluvchi qonun sifatida lex arbitri qay darajada muhimligi maqoladan o'rin olgan. Bundan tashqari, ushbu maqolada arbitraj kelishuvining amaliyotdagi bir qancha ko'rinishlari va ular xususida gap borib, uning arbitraj jarayonidagi o'rni batafsil o'rganiladi. Muallif tomonidan "patologik arbitraj kelishuvi borasida bir qancha tanqidiy fikrlar berilib, arbitraj kelishuvining "nuqsonli" bo'lib qolmasligi borasida takliflar beriladi. Ushbu maqolada yuqoridagilardan tashqari, Janubiy Koreyada arbitraj jarayoni, taraflar tomonidan tuziladigan arbitraj kelishuvining holati haqida o'rganiladi. Arbitrajning suddan farqli tomonlari, afzalliklari hamda o'xshash tomonlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: arbitraj, arbitraj kelishuvi, taraflar, sud, bitim, patologik arbitraj kelishuvi, nuqsonli kelishuv, lex arbitri, huquq.

**ARBITRATION AGREEMENT AND DISPUTE ARBITRATION
LAW**

Mukhiddinov Shakhzodjon Abdurayim o'g'li

Lawyer

e-mail: shahzodjonmuhiddinov@gmail.com

Abstract. *This article discusses the arbitration agreement and the law governing the arbitration process. In particular, the meaning and significance of the arbitration agreement in the arbitration law is discussed. The importance of the article is that the arbitration agreement does not become defective and the importance of the lex arbitri as the law governing arbitration is reflected in the article. In addition, this article examines in detail several aspects of the arbitration agreement in the practice and their role in the arbitration process. The author gives several critical points about the pathological arbitration agreement and offers suggestions on how to prevent the arbitration agreement from becoming defective. In addition to the above, this article examines the arbitration process in South Korea regarding the status of the arbitration agreement entered into by the parties. The differences, advantages and similarities of arbitration from court are analyzed.*

Key words: *arbitration, arbitration agreement, parties, court, agreement, pathological arbitration agreement, nuanced agreement, lex arbitri, law.*

Arbitraj jarayoni, sir emaski, xususiy sudlov tizimi hisoblanadi. Nega deganda, ushbu jarayondagi nizolashuvchi taraflar o'z nizolarini har qanaqa milliy sudlar ta'siridan holi ravishda hal qilishni ustun ko'rishadi. Arbitraj jarayoni o'z taraflariga taqdim etadigan erkinlikni esa, xuddiki, taraflarning xususiy adliya tizimiga qiyoslashimiz ham mumkin. Mana shunday erkinliklar arbitraj kelishuvida o'z aksini topgan bo'ladi.

Bilamizki, taraflar o'z nizolarini arbitrajda hal etilishiga oldindan va yoki keyin ham qaror qabul qilishlari mumkin. Bunda taraflar agarki, o'rtalarida nizo kelib chiqishi mumkinligi taxmini bilan, nizo kelib chiqqan taqdirda nizo arbitrajda ko'rib chiqiladi, degan qoidani o'rtalaridagi asosiy tijorat shartnomasining bandi

hisoblanadigan yozma kelishuvda kelishib olishlari mumkin. Mana shunday tijorat shartnomasining bandi arbitraj huquqida (arbitration clause) arbitraj izohi deb nomlanadi. Ikkinchi holatda esa, taraflar o'rtasida tijorat shartnomasi yuzasida nizo kelib chiqadigan bo'lsa-yu, arbitraj izohi mavjud bo'lmasa ham, taraflar ana shu nizoni arbitrajda ko'rib chiqilishiga rozilik berishlari (submission agreement) taqdim etish kelishuvi deb nomlanadi.

Albattaki, arbitraj jarayonidagi eng muhim va ahamiyatli holat - bu arbitraj kelishuvining tuzilishidir. Aniqroq ta'riflaganda, arbitraj kelishuvi - taraflarning kelib chiqqan nizolarini tartibga solish uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Bunda ushbu kelishuvning haqiqiyliigi muhim omil kasb etadi. Yuqorida aytib o'tilganidek, arbitraj kelishuvining mavjudligi bevosita nizoni har qanday suddan tashqarida ko'rilishni bildiribgina qolmay, taraflar uchun xususiy adliyani "kashf etish"ni taklif etadi. Ya'ni bunda taraflarga beriladigan nihoyatda katta erkinlik ana shu kelib chiqqan nizoni qanday, kim tomonidan, qay tartibda hal etilishi bilan bog'liq holatlarni tanlash huquqidir.

Shak-shubhasiz, bunday huquqlar taraflar o'rtasidagi arbitraj kelishuvida o'z aksini topadi. Arbitraj kelishuvida taraflar arbitraj jarayonining borish tartibini, o'tkaziladigan joyini, muhokama tilini, arbitraj sudini tartibga soluvchi qonunni va taraflar o'tkazilayotgan munozara yuzasidan o'zlarining aniq bir xulosalari borligi uchun ko'p hollarda arbitrlarni ham o'zlari tanlashlari mumkin. Bundan tashqari, arbitraj kelishuvi nizoni hal qilish huquqini arbitrlarga taqdim etib, ularning vakolat doirasini belgilab beradi. ^[1] Yuqorida arbitraj izohi va taqdim etish kelishuvi haqida so'z bordi. Arbitraj kelishuvi, odatda, tijorat shartnomasining bandida mavjud bo'ladi, taqdim etish kelishuvi esa nizo kelib chiqqandan keyin

¹ [Xalqaro tijorat arbitraji tamoyillari va amaliyoti. Toshkent. "LESSON PRESS" 2020. Darslik. Margaret L.Mozes]; SJIF: 5.051

tafaflarning o'zaro roziligi bilan tuziladi. Biroq arbitraj amaliyoti tafaflarga taqdim etish kelishuviga qaraganda, arbitraj kelishuvini tuzishlarini taklif etadi. Chunki arbitraj kelishuvi mavjud bo'lsa, nizo kelib chiqqan zahoti tafaflar unga nizoni hal etadigan yagona vosita sifatida qarashadi. Lekin bunday kelishuv mavjud bo'lmaganda, nizo kelib chiqqan taqdirda, tafaflarning kelishuvga erishishlari bir muncha mushkul holat sifatida qaraladi. Ya'ni tafaflar nizo kelib chiqishidan oldin arbitraj kelishuvini tuzib olmasalar, nizo kelib chiqqanda, bir yoqadan bosh chiqarib taqdim etish kelishuvini tuzishlari amrimaholdir.

Shuni ham aytish muhimki, arbitraj kelishuvi o'zining alohidalik yurisdiksiyasi bilan ahamiyatlidir. Arbitraj kelishuvi tafaflarning tijorat shartnomasi bandida aks etsa-da, juda ko'p amaliyotlar hamda qoidalar arbitraj kelishuvini alohida, bitta, tijorat shartnomasidan mustaqil bo'lgan shartnoma deb hisoblashadi. Ya'ni arbitraj kelishuvi kiritilgan ana o'sha asosiy bo'lgan tijorat shartnomasi (kontener shartnoma) haqiqiy emas deb topilgan vaqtda ham, ushbu nohaqiqiylik arbitraj kelishuviga daxldor bo'lmaydi. Bu esa bunday vaziyatlarda arbitraj kelishuvi garchi kontener shartnomaga kiritilgan bo'lsa-da, uning haqiqiyligini saqlab qolishini anglatadi. Arbitraj huquqida kelishuvning ushbu alohidalik doktrinasini "arbitraj kelishuvining avtonomiyasi" deb nomlanadi.

Arbitraj amaliyotida arbitraj kelishuviga oid ko'plab nizolar uning haqiqiyligiga borib taqaladi. Shuning uchun ham arbitraj kelishuvining haqiqiyligiga alohida to'xtalib o'tamiz. Avvalo, shuni aytish joizki, tafaflarning arbitrajga oid roziliklari bevosita oshkora va ochiq oydin bo'lishi muhim omil sanaladi. Bundan tashqari, ko'plab asosiy hujjatlar tafaflardan yozma kelishuvni talab qilishi bois ham tafaflar o'zlarining roziliklarini haqiqiyligi asnosida arbitraj kelishuvini yozma tarzda tuzishadi. Biroq, mana shu "yozma ravishda tuzilishi"

kerakligi bir qancha nizolarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Arbitraj kelishuvi uchun qo‘yiladigan ushbu talab bir taraf arbitraj kelishuvi qaroridan qaytib qolganda o‘z ta’sirini o‘tkazadi.^[2]

“Xalqaro arbitraj qarorlarini tan olish va ijroga qaratish to‘g‘risida”gi New York Konvensiyasining 2-moddasi ikkinchi bandida ham kelishuvning yozma ravishda tuzilishiga oid qoida belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra, “yozma ravishdagi kelishuv” atamasi taraflar tomonidan imzolangan shartnomadagi arbitraj izohi yoki arbitraj bitimini yoki o‘zaro xatlar, telegrammalar almashinuvini o‘z ichiga oladi.^[3] Ushbu modda arbitraj kelishuvining yozma ravishdagi ko‘rinishiga nafaqat bevosita yozma ravishda tuzilgan, balki ana shu kelishuvga xatlar, telegrammalar almashinuvi orqali erishilganda ham, kelishuv yozma ravishda tuzilgan deb hisoblanishini belgilagan. Arbitraj kelishuvining haqiqiyliigi borasida so‘z borganda, asosan, uni ikki taraflama ko‘rib aniqlash lozim bo‘ladi. Birinchidan, Konvensiyaning 2-moddasi belgilab berganidek, kelishuvning yozma ravishda tuzilganligi, imzolanganligini tekshirish bo‘lsa, ikkinchidan, kelishuvning mazmunan haqiqiyliigiga borib taqaladi.

Bugungi kunda xatlar va telegrammalardan ham zamonaviy almashinish vositalari bor bo‘lsa-da, aynan New York Konvensiyasining 2-moddasiga arbitraj kelishuvi javob bermasa, uni haqiqiy deb topmay, qaror qabul qilmaydigan sudlar juda ko‘p.

Bundan tashqari, UNCITRAL namunaviy qonunining 7-moddasida ham arbitraj kelishuvining yozma ravishda tuzilishi kerakligiga oid qoida belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra, arbitraj bitimining yozma shaklidagi talabi elektron aloqa

² [Xalqaro tijorat arbitraji tamoyillari va amaliyoti. Toshkent. “LESSON PRESS” 2020. Darslik. Margaret L. Mozes, 44-b];

³ [Xalqaro arbitraj qarorlarini tan olish va ijroga qaratish to‘g‘risida” New York Konvensiyasi, 2-modda]; SJIF: 5.051

orqali, agar unda mavjud bo'lgan ma'lumotlar keyinchalik havola qilish uchun foydalanilishi mumkin bo'lsa, ta'minlanishi mumkin. "Elektron aloqa" taraflar ma'lumotlar uzatish orqali amalga oshiradigan har qanday aloqani anglatadi. "Ma'lumot xabari" elektron, magnit, optic yoki shunga o'xshash vositalar yordamida yaratilgan, yuborilgan, olingan yoki saqlanadigan ma'lumot, shu jumladan, elektron ma'lumotlar almashinuvi (EDI), elektron pochta, telegramma, teleks yoki telekopiya.^[4] Namunaviy qonunda taraflar elektron aloqani xalqaro shartnomalarda elektron aloqadan foydalanish to'g'risidagi BMTning Konvensiyasida belgilab qo'yilgan tarzda belgilaydi.^[5] Arbitraj kelishuviga nisbatan qo'yiladigan ushbu talab UNCITRALga nisbatan New York Konvensiyasida qat'iy ravishda belgilangan. Chunki New York Konvensiyasining 2-moddasi yozma ravishdagi kelishuv deganda, aynan xat yoki telegramma almashinuvini nazarda tutgan bo'lsa, Namunaviy Qonunning 7-moddasidan ko'rishimiz mumkinki, "ma'lumotlar almashinuvi"ning ichiga xatlar va telegrammalar orqali almashinuvdan boshqa vositalar ham kiradi. Ya'ni taraflar qonunda aytib o'tilmagan vositalardan tashqari vositalardan ham ma'lumotlar almashinuvidan foydalansa bo'ladi.

Milliy qonunchiligimiz bu haqida nima deydi?

2021-yil 16-fevralda qabul qilingan "Xalqaro tijorat arbitraji" to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga murojaat etar ekanmiz, Qonunning 12-moddasi arbitraj kelishuvining ta'rifi va shakliga bag'ishlanganligini aytish o'rinli. Ushbu moddaga ko'ra, arbitraj kelishuvi taraflarning shartnomaviy xususiyatga egaligidan yoki ega emasligidan qat'iy nazar, biror-bir aniq huquqiy munosabat bilan bog'liq bo'lgan, ular o'rtasida yuzaga kelgan yoki yuzaga kelishi mumkin

⁴ [UNCITRAL Namunaviy Qonuni, 7-modda];

⁵ [WWW.uncitral.org.];

bo'lgan barcha yoki muayyan nizolarni arbitrajga topshirish to'grisidagi kelishuvdir.^[6] Bundan tashqari, ushbu modda arbitraj kelishuvi arbitraj bandi va yoki umuman alohida tarzidagi shartnoma bo'lib tuzilishi aytib o'tilgan. Moddaning ikkinchi qismi arbitraj kelishuvining yozma shaklda tuzilishi kerakligini belgilab bergan. Qolaversa, milliy qonunchiligimiz agar arbitraj kelishuvining mazmuni arbitraj kelishuvi yoki shartnoma og'zaki shaklda tuzilganligidan yoki tuzilmaganligidan qat'iy nazar, taraflarning harakati asosida yoxud boshqa vositalar yordamida biror-bir shaklda qayd etilgan bo'lsa, ushbu kelishuv yozma shaklda tuzilgan kelishuv hisoblanishi belgilangan. ^[7] Ko'rib turganimizdek, milliy qonunchilik arbitraj kelishuviga nisbatan qo'lgan ushbu talabga nisbatan, taraflar qanday vosita orqali ma'lumot almashishidan qat'iy nazar, uni qayd etilishi muhimligini belgilaydi. Bundan tashqari, ushbu moddaning to'rtinchi va beshinchi qismiga alohida to'xtalishni lozim topdik. Xususan, unga ko'ra, arbitraj kelishuvining yozma shaklda tuzilishi to'g'risidagi talab elektron xabar orqali bitta holatdagina qanoatlantirilar ekan. Ya'ni o'sha elektron xabardagi axborot kelgusida undan foydalanish uchun ochiq bo'lganda. Ushbu moddadagi "elektron xabar" tushunchasi taraflar ma'lumotlarni yuborish orqali uzatadigan har qanday xabarni anglatadi.^[8]

Huquq hech qachon bir joyda muqim turmaydi. U kecha boshqa bo'lsa, bugunga kelib yana boshqa bo'ladi, rivojlanadi. Xuddiki, hozirgi zamonaviy xalqaro huquq va klassik xalqaro huquq kabi. Vaqt o'tib, hozirgi xalqaro huquq sifatida tan olingan huquq rivojlanib, yangi bir xalqaro huquq paydo bo'ladi. Demoqchimanki, huquqning ochilmagan va kashf etilmagan qirralari juda ko'p.

⁶ [Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 12-modda birinchi qism];

⁷ [shu yerda, 12-modda ikkinchi, uchinchi qism];

⁸ [shu yerda, 12-modda beshinchi qism];

Xalqaro arbitraj huquqi shu kungacha bo‘lgan o‘z amaliyotida arbitraj kelishuvining bir qancha turlarini farqlashga ulgurgan. Misol uchun, kelishuvning haqiqiyligi bilan bog‘liq bo‘lgan turi. Arbitraj kelishuvi taraf hisoblangan shaxs tomonidan har qanday ta’sirdan holi ravishda, erkin holatda, haqiqatdan ham roziligini ifoda etish uchun tuzilgan bo‘lishi kerak. Kelishuv firibgarlik, zo‘ravonlik yoki shunga o‘xshash biror-bir ta’sir ortida tuzilishi uning to‘g‘ridan-to‘g‘ri haqiqiy emasligiga olib keladi.^[9] Yana bir muhim ma’lumot shundaki, agar tarafning huquq layoqati mavjud bo‘lmasa, huquq layoqatiga ega bo‘lmasa, o‘sha taraf bilan tuzilgan har qanday kelishuv bevosita “haqiqiy bo‘lmagan bitim” ning tuzilganligini anglatadi va bitim hech qanday yuridik kuchga ega bo‘lmaydi. Layoqatlilik masalasi shartnoma tarflari, misol uchun, davlat agentligi – arbitraj bitimini tuzish uchun vakolatga yoki zarur tasdiqlarga ega bo‘lmaganda paydo bo‘lishi mumkin.^[10] Amaliyot o‘z kuchini yo‘qotgan yoki ijro etib bo‘lmaydigan turdagi bitimlarga ham duch kelishi mumkin. Keling, ularni bir biridan farqlab olamiz. Qachon bitim o‘z kuchini yo‘qotgan bitim deb hisoblanadi? Bunga ikkita sabab keltirish mumkin:

Birinchisi, arbitraj bitimi sud tomonidan res judicata ya’ni ta’qiqlangan bo‘lsa;

Ikkinchisi, kerakli muddat tugagan bo‘lsa.

Taraflar o‘rtasidagi masala ilgari boshqa yurisdiksiyada ko‘rib, hal etilgan bo‘lsa, yoki tomonlar tomonidan bitim bekor qilingan holda va yoki tomonlar ana shu nizoni hal etish borasida yakdil kelishuvga erishishgan holatlarda kelishuv ishlamaydi va uni ijro etib bo‘lmaydi. Ikkinchi holatda esa, tasavvur qilaylik,

⁹ [Apple & Eve, LLC Yantai Shimoliy Andre juice. Co. LTD. 610 F.Supp.2d 226, 228-222, Bautista va yulduzli kruizlar];

¹⁰ [Nayjel Blekabi, Konstantin Partasidlarva boshqalar, 2-bob. Xalqaro arbitrlk to‘g‘risida Redfern va Xunterda arbitrlk qilishga kelishuv 71, N2.31-2.41 (2015-yil 6-nashr)];

shartnoma bekor qilindi va taraf uchun bu yuzasidan arbitrajga murojaat etish uchun ma'lum bir vaqt chegarasi (bu tarafga berilgan ma'lum muddat ichida arbitrajga murojaat etish huquqini bildiradi) taqdim etildi. Biroq taraf tomonidan ushbu muddatda arbitrajga murojaat etilmadi va muddat nihoyasiga yetdi. Bu kabi holatlarda bitim o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanadi.

Shu o'rinda xorij tajribasiga ham nazar solsak, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Xususan, Janubiy Koreya arbitraj qonuniga muvofiq, arbitraj kelishuvining "alohidalik doktrinasi" juda faol hisoblanadi, ya'ni har qachon ham arbitraj bitimi tijorat shartnomasidan alohida ravishda ko'rib chi qilar ekan. Aytib o'tish joizki, Koreyada ad hock arbitrajga qaraganda, institutsional arbitrajlar ancha keng rivojlanagan va ad hockka nisbatan keng tarqalgan. Bundan tashqari Janubiy Koreya arbitraj qonuniga ko'ra, taraflar tomonidan arbitraj kelishuvining mavjudligini rad etmaslik, bevosita uning yozma ravishda tuzilganligidan dalolat beradi. Koreya "Xorijiy arbitraj qarorlarini tan olish va ijroga qaratish to'g'risida"gi New York Konvensiyasini 1973-yil 8-fevralda imzolagan, va ushbu hujjat 1973-yilning 9-mayida kuchga kirgan.

Aytib o'tilganidek, arbitraj jarayoni nizolarni hal qilishning bir turi bo'lishi bilan birgalikda, suddan mutlaqo holi tizimdir. Hamda sudga qaraganda oddiyroq, soddalashtirilgan jarayondir. Qolaversa, arbitrajning yana bir muhim afzalliklaridan biri uning arzonligidadir. Chunki arbitraj kelishuvi sud xarajatlarini cheklash va nizolarni maxfiy saqlashning xalqaro tan olingan usuli sanaladi. Nima uchun arbitrajning maxfiyligi ahamiyatli deyilganda, ushbu jarayonda taraflarning ochiq guvohlik berishlari shart emasligi bilan javob qaytariladi. Eng muhimi esa, taraflar o'z nizolarini qaysi arbitr hal qilishini tanlashligidadir.

Ushbu jarayon suddan mutlaqo tashqarida hisoblansa-da, ular orasida ayrim o'xshashliklar mavjuddir. Misol uchun: tomonlar o'rtasida ma'lumotlar almashinuvining amalga oshirilishi, guvohlar chaqirilishi va so'roq qilinishi mumkinligi.

Arbitraj amaliyoti shu darajada qizg'in shukuhga egaki, u kutilmagan holatlarga boy va taraflardan har qanday holatga tayyor turishni talab etadi, garchi, bu borada taraflar o'zlarining "xususiy adliya tizimi"ga ega bo'lishsa ham. Oddiy misol qilib aytganda, bilamizki, taraflar arbitraj kelishuvida arbitrajni qanday o'tishini o'zlari belgilashlaridan tashqari, nizoni hal etish uchun arbitrlarni ham tanlash huquqiga ega bo'lishadi. Tasavvur qilamiz, taraflar kelishuvga o'zlari istagan arbitrni tanlashdi. Biroq nizo vaqtiga kelganda, tanlangan arbitr vafot etsa, boshqa ish bilan band bo'lsa va taraflar yangi kelishuvga erisha olmasalar, o'z-o'zidan bunday bitimni ijro etish mumkin bo'lmaydi.^[11]

Xalqaro arbitraj huquqida "patalogik arbitraj kelishuvi" tushunchasiga ham duch kelish mumkin. "Patalogik arbitraj kelishuvi"ni qaysidir ma'noda "nuqsonli kelishuv" deb atash joiz bo'ladi.^[12] Bu kabi arbitraj kelishuvi uni tuzish vaqtida unga nisbatan e'tiborsizlik, mas'uliyatsizlik orqasidan kelib chiqadi. Aytish joizki, ushbu e'tiborsizlik advokatlar va taraflarning yo'l qo'yadigan eng katta xatosi hisoblanadi. Chunki arbitraj kelishuvi taraflar o'rtasidagi nizoni aniq, rejali, tizimli, unumli va samarali hal etilishida muhim omil sanaladi. Eng achinarlisi, ko'p hollarda bu kabi nuqsonli kelishuvlar bitimni bekor qilinishiga olib kelishi ham mumkin. Avvalo, bitim nuqsonli bo'lmasligi uchun, kelishuvda noaniqlik va mavhumlikdan yiroqda bo'lish talab etiladi. Ya'ni har bitta holat aniq qilib

¹¹ [Xalqaro tijorat arbitraji tamoyillari va amaliyoti. Toshkent. "LESSON PRESS" 2020. Darslik. Margaret L.Mozes. 61-b.];

¹² [Frederik Eisemann, IKK Arbitraj sudining sobiq bosh kotibi, "patalogik izoh" iborasini yaratuvchisi sifatida ishoniladi. V.Laurence Kraig, Villiam V. Park & Jan Paulsson, xalqaro savdo arbitraji palatasi];

belgilanishi lozim. Keyingi o‘rinlarda esa, undagi ma’lumotlar to‘g‘ri belgilangan bo‘lishi lozim. Ya’ni taraflar o‘zlariga berilgan huquqdan unumli foydalangan holda, arbitraj muassasasining nomini, o‘tkaziladigan vaqtni, arbitrlarni hamda arbitraj jarayonini tartibga soluvchi qonunni aniq va to‘g‘ri qilib belgilab ko‘rsatishlari kerak. Agar ular muassasa nomini yoki qonunni noto‘g‘ri qilib belgilashgan bo‘lsa, ushbu bitim “nuqsonli” hisoblanadi. Nega deganda, ular kelishuvning eng asosiy xususiyatlaridan hisoblanadi. Shuning uchun ham arbitraj kelishuvini tuzishda ehtiyotkorlik talab etiladi. Biz taklif o‘rnida aytishimiz joizki, arbitraj kelishuvi nizoning samarali hal etilishida yagona omil bo‘lganligi uchun, qolaversa, uni tuzish alohida malaka talab etishi bois, uni tuzishga mutaxassis advokatlargagina vakolat berilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Chunki bugungi kunda ushbu masala biror-bir tarzda o‘z qolipiga solib, belgilanmagan. Bu esa yuqoridagi kabi samarasizlikni va ham taraf, ham boshqa shaxslarning ortiqcha vaqtini o‘g‘irlanib kelishiga sabab bo‘lmoqda. Amaliyotda arbitraj kelishuvi tijorat shartnomasini tuzuvchi huquqshunoslar tomonidan tuzilishi bois, ko‘p hollarda, “patologik arbitraj kelishuvlari” turli qiyofada namoyon bo‘ladi. Vaholangki, arbitraj kelishuvi boshqa kelishuvlar tuzilishiga nisbatan butkul boshqacha qolipga ega.

Bundan tashqari, arbitraj jarayonida yana bir muhim omil borki, ushbu omil arbitraj jarayonida nizoning qanday hal etilishini o‘z ichiga oladi. Ushbu omil arbitraj jarayonini tartibga soluvchi qonundir. Bilamizki, taraflarga berilgan erk-muxtoriyati orqali taraflar ko‘p hollarda shartnomalariga nisbatan qo‘llaniladigan huquqni tanlashadi. Arbitraj jarayonida qo‘llaniladigan huquq esa amaliyotdan kelib chiqqan holda, ko‘pincha, arbitraj amalga oshiriladigan joy qonuni (lex arbitri) hisoblanadi. Taraflar tanlagan shartnomaga nisbatan qo‘llaniladigan huquq

va lex arbitriga arbitrlar soʻzsiz amal etishlari lozim boʻladi. Agar ushbu qonunlar arbitr tomonidan qoʻllanilmasa, arbitrning oʻz vakolati doirasidan chetga chiqqanligi hamda jarayon taraflar kelishuviga zid ravishda boʻlayotganligi vaji bilan arbitrlar chiqargan qarorning rad etilishiga olib kelinishi mumkin. ^[13] Biroq juda koʻp hollarda taraflar shartnomaga nisbatan qoʻllaniladigan huquqningina tanlashadi, chunki taraflarga aynan shartnoma boʻyicha nizoning yakuni ahamiyatli hisoblanadi. Shu boisdan ham, koʻp hollarda, arbitrajni tartibga soluvchi qonunni aniq qilib belgilab koʻrsatishmaydi. Shunday boʻlsa-da, arbitraj oʻtkazilayotgan joyni belgilashadi. Bu esa taraflarning arbitraj jarayonini tartibga soluvchi qonun sifatida lex arbitrini qoʻllanilishiga qarshi emasliklarini ifoda etadi.

Arbitrajni tartibga soluvchi qonun nafaqat lex arbitri nomi bilan namoyon boʻladi, balki uni baʼzi adabiyotlarda “kurial huquq” deb ham nomlashadi. ^[14]

Koʻpchilik mamlakatlarning bugungi kundagi lex arbitriga yaqqol misol Xalqaro tijorat arbitrajining UNCITRAL Namunaviy Qonuni hisoblanadi. Ushbu Namunaviy Qonun bugunga kelib, kamida 72 ta mamlakatlar, mintqa va davlatlarda qabul qilingan boʻlsa ham, u har doim bir xilda qabul qilinmagan. Shu sababga ham qaramay, UNCITRALni oʻzining xalqaro arbitraj qonuni sifatida qabul qilgan yurisdiksiyalarda elementlari oʻshaligicha qolgan. UNCITRAL arbitraj kelishuvining haqiqiylikini va kelishuv haqiqiy boʻlsa, sudning taraflarni arbitrajga yuborish majburiyati borligini belgilagan. Ushbu Qonun arbitraj masalasiga oid har qanday nizoda sudning aralashuvini cheklaydi va taraflarga arbitraj jarayoniga boʻlgan huquqni yoʻqotmasdan suddan vaqtincha yordam olishga ruxsat beradi. U arbitraj sudining tarkibini, arbitrlarni rad qilish asoslarini, arbitraj sudining yurisdiksiyasini belgilaydi. UNCITRAL Namunaviy Qonuni

¹³ [New York Konvensiyasi, B (1) (c-d) modda];

¹⁴ [Xalqaro tijorat arbitraji tamoyillari va amaliyoti, Margaret L.Mozes];
SJIF: 5.051

arbitraj protsessini tartibga solib, taraflar arbitraj jarayonini qanday o'tkazish bo'yicha kelishishiga ruxsat beradi.^[15]

Bugungi kunda arbitrajga oid nizolar tobora avj olayotganligi bois, uni o'rganish uchun ushbu huquq sohasi malakali huquqshunoslarga muhtoj. Arbitraj kelishuvi va arbitraj jarayonini tartibga soluvchi qonun bu borada eng ahamiyatli nuqtalardan hisoblanadi. Zero, arbitraj kelishuvi taraflarning o'z nizolarini arbitrajda ko'rilishi uchun asos bo'lsa, uni qanday samarali bo'lishi arbitraj jarayonini tartibga soluvchi qonunga bog'liq bo'ladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, arbitraj jarayonini tartibga soluvchi qonun juda ko'p hollarda lex arbitri bo'ladi. Bu borada ham, albattaki, bir qancha olimlar aniq to'xtamga kelisha olmaydilar (delokolizatsiya va delokollashtirish nazarda tutilyapti). Biz amaliyot qo'llab kelayotgan usulni e'tirof etgan bo'lardik. Chunki taraflar arbitraj sohasida "qonun" deganda, avvalo, o'zlarining nizolarini hal etilishi uchun shartnomaga nisbatan qo'llaniladigan huquqni afzal ko'rishadi. Lekin arbitraj joyini tanlashlari orqali, bevosita uni tartibga soluvchi qonunni ham belgilab qo'yishadi. Ko'pchilik olimlar, bunday vaziyatlarda lex arbitri qo'llanilishi majburiy emas va bu amaliyot biror-bir milliy huquqqa bo'ysunishni ioda etyapti, degan nazariyani olg'a surishadi. Lekin taraflarning arbitraj joyini tanlashlari orqali bevosita qonunning tanlanishiga nisbatan roziliklari, bizningcha, eng muhimi hisoblanadi. Chunki arbitraj, eng avvalo, taraflarga beriladigan erk-muxtoriyati bilan ajralib tursa, albattaki, unda birinchi galda taraflarning xohish-irodasi ustunlikka ega bo'ladi.

Yuqoridagilarga xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, arbitraj huquqining ajralmas qismi bo'lgan arbitraj kelishuvining huquqiy tabiati bir muncha

¹⁵ [Shu yerda, 100-b.];
SJIF: 5.051

mushkuldir. Arbitraj kelishuvining ahamiyatini ko'rib chiqishda, quyidagilar oydinlashdi:

Birinchidan, arbitraj kelishuvi nizoning har qanday sud ta'siridan holi ravishda hal etilishini ifoda etadi;

Ikkinchidan, arbitraj kelishuvi taraflarning erk-muxtoriyatini yuzaga chiqaruvchi kelishuvdir;

Uchinchidan, arbitraj kelishuvi nizoning samarali hal etilishida muhim omildir;

To'rtinchidan, arbitraj kelishuvi o'zining alohidalik doktrinasiga asosan ahamiyatlidir;

Beshinchidan, arbitraj kelishuvining nuqsonli bo'lib qolmasligi uchun, u malakali mutaxassislar tomonidan tuzilishi kerak.

Bundan tashqari, arbitraj jarayonini tartibga soluvchi qonun har qachon o'zining ahamiyatini yo'qotmaydi. Chunki taraflarning nizolari, ularning qanday va qancha muddatda hal etilishi ko'p foizlar bilan arbitrajni tartibga soluvchi qonunga borib taqaladi. Gapimizga yakun yasar ekanmiz, aytish o'rinliki, arbitraj sohasining har bitta nuqtasi juda ahamiyatli va muhokamaga boy hisoblanadi. Biz to'xtalib o'tgan arbitraj kelishuvi va arbitrajni tartibga soluvchi qonun shulardan bir parchasi edi, xolos.

ADABIYOTLAR:

1) Xalqaro tijorat arbitraji tamoyillari va amaliyoti. Toshkent. "LESSON PRESS" 2020. Darslik. Margaret L. Mozes; Shu yerda, 44-bet;

- 2) “Xalqaro arbitraj qarorlarini tan olish va ijroga qaratish to‘g‘risida”gi New York Konvensiyasi 2-moddasi;
- 3) UNCITRAL Namunaviy Qonuni, 7-modda; WWW.uncitral.org;
- 4) “Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 12-modda birinchi qism; Shu yerda, 12-modda ikkinchi, uchinchi qism; Shu yerda, 12-modda, beshinchi qism;
- 5) Apple & Eve, LLC Yantai Shimoliy Andre juic. Co. LTD. 610 F. Supp. 2d 226, 228-222, Bautista v Yulduzli kruizlar;
- 6) Nayjel Blekabi, Konstantin Partasidlar va boshqalar, 2-bob. Xalqaro arbitrluk to‘g‘risida Redfern va Xunterda arbitrluk qilishga kelishuv 71, N2.31- 2.41 (2015-yil 6-nashr);
- 7) Xalqaro tijorat arbitraji tamoyillari va amaliyoti. Toshkent. “LESSON PRESS” 2020. Darslik. Margaret L.Mozes. 61-bet;
- 8) Frederik Eisemann, IKK Arbitraj sudining sobiq bosh kotibi, “patalogik izoh” iborasini yaratuvchisi sifatida ishoniladi. V.Laurence Kraig, Villiam V.Park & Jan Paulsson, xalqaro savdo arbitraji palatasi;
- 9) New York Konvensiyasi, B (1) (c-d) modda;
- 10) Xalqaro tijorat arbitraji tamoyillari va amaliyoti. Toshkent. “LESSON PRESS” 2020. Darslik. Margaret L. Mozes; Shu yerda, 100-bet.